



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 15-may, № 98 (8993)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



OCHIQLIK, SHAFFOFLIK VA ADOLATLI SAVDOGA BO'LGAN QAT'IY INTILISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-may kuni O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni va uni jadallashtirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Davlat rahbarining alohida nazorati asosida 2023-yildan boshlab JSTga a'zo bo'lish choralari ko'rilmogda. O'tgan davrda ko'p va ikki tomonlama muzokaralarda muayyan natijalarga erishildi.

Jumladan, Ishchi guruhining to'rtta muhim yig'ilishi o'tkazilib, 500 dan ortiq masalalar ko'tarildi, 30 dan ziyod rasmiy hujjatlar JST Kotibiyatiga taqdim etildi. A'zolikni jadallashtirish maqsadida sohalarida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, 33 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar olib borilib, bugungi kunga qadar 24 tasi bilan muzokaralar yakunlandi.

JST a'zolari bilan muloqotda yangi yondashuv va islohotlar natijalari ijobiy baholanmoqda. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonida ochiqlik, shaffoflik va adolatli savdoga bo'lgan qat'iy intilishini tasdiqlaydi.

Shu ma'noda, milliy qonunchilikni tashkilot talablariga uyg'unlashtirish doirasida keng ko'lamli huquqiy va institusional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 13 ta qonun, Prezidentning 10 ta Farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori va 10 ta idoralararo normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Jumladan, bojxona tartibotlari, eksport-import qoidalari hamda intellektual mulk sohasidagi mexanizmlar bosqichma-bosqich JST standartlariga moslashtirildi, davlat

ulushi mavjud bo'lgan 6 ta korxonada eksklyuziv huquqlar bekor qilindi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan JSTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish hamda uni sifatli va tizimli tashkil etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Unga ko'ra joriy yilda qolgan 9 ta mamlakat bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash, Ishchi guruhining 2 ta yig'ilishini o'tkazish hamda Ishchi guruhning hisobot loyihasini yakunlash orqali O'zbekistonning JST doirasidagi majburiyatlarini to'liq shakllantirish vazifalari aniq belgilab berildi.

Shuningdek, qonunchilikni tashkilot talablariga moslashtirish doirasida 15 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonini jadallashtirish zarurligi ta'kidlandi. Jumladan, “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida”, “Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risida” yangi tahrirdagi qonunlarni qabul qilishni tezlashtirish hamda bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan yaqindan va samarali hamkorlikni ta'minlash Prezident tomonidan muhim vazifa sifatida belgilab berildi.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya sohalarini isloh qilish, ushbu yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish kerakligi alohida qayd etib o'tildi.

RENOVATSIYA MANZILLARI ZAMONAVIY LOYIHALAR ASOSIDA QAYTADAN QURILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida rejalashtirilgan renovatsiya va investitsiya loyihalarini taqdimoti bilan tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrda qabul qilgan 2045-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan bosh rejasi tasdiqlangan edi. Bosh rejaga ko'ra poytaxtimiz hududi 3 ta — konservatsiya, rekonstruksiya va renovatsiya zonalariga ajratilgan.

Jumladan, renovatsiya zonasiga eski, kam qavatli uylar, shaharsozlik va zilzilabardoshlilik talablariga javob bermaydigan binolar kiritilgan. Ular bosqichma-bosqich bartaraf etilib, bo'shatilgan hudud zamonaviy loyihalar asosida qaytadan qurilishi ko'zda tutilgan.

Taqdimotda bu boradagi rejalarda haqida axborot berildi.

Qayd etilganidek, Bosh rejada 300 dan ortiq renovatsiya manzillari belgilangan. 2025-2026-yillarga mo'ljallangan birinchi bosqichda 65 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu orqali mazkur hududlar funksional jihatdan boyitiladi, aholi uchun sharoitlar yaxshilanadi, atrof obodonlashtiriladi. Natijada eski va zamonaviy mavzellar orasidagi tafovut bosqichma-bosqich qisqartirib

boriladi hamda ular o'zaro uyg'unlashtiriladi. Binolar kam maydonda qurilib, mavjud daraxtlar saqlab qolindi, yangi yashil hududlar barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarning shahar arxitekturasini va infratuzilmasiga mosligini chuqur o'rganish, geologik va seysmik tahlillar asosida xavfsizlik jihatidan takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Turarjoylar maktab-bog'cha kabi ijtimoiy muassasalar, dam olish sharoitlari bilan hamohang bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Shaharning “o'pkasi” daraxtzorlar bo'lsa, ariq va kanallar uning “qon tomiri”. Prezidentimiz ko'rsatmasi bilan yangi bosh rejada bu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Toshkent shahri va uning atrofidagi yashil hududlarni 3 karra ko'paytirib, 25 ming gektarga yetkazish maqsad qilingan. Bu, o'z navbatida, suv yo'llarini yaxshilashni talab etadi. Taqdimotda shahar irrigatsiya va drenaj tarmoqlarining yangi bosh reja bilan uyg'unlashtirilgan tizimi ham ko'rib chiqildi.

Unga ko'ra 2030-yilgacha 100 kilometr kanallar rekonstruksiya

qilinib, atrofida sayilgohlar tashkil etiladi.

Turkiyaning “Su-yapi engineering and consulting” kompaniyasi bilan birga drenaj tarmoqlaridagi muammolar o'rganilgan. Aerofoto, geodeziya va yog'ingarchilik tahlili asosida bu tarmoqlarni yangilash bo'yicha master-reja ishlab chiqilgan. O'tgan yili 45 ta suv toshqini hududi bartaraf etilgan. Bu yil yana 34 ta joyda shunday ishlar bajariladi.

Prezidentimiz bu ishlarni davom ettirib, qamrovini yanada oshirish, shu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbariga Toshkent shahrida investitsiya loyihalarining holati haqida ham axborot berildi.

Poytaxtimizda umumiy qiymati 25 milliard dollarlik 717 ta investitsiya loyihasi shakllantirilgan. Joriy yilda shundan 7 milliard 500 million dollari o'zlashtirilib, 265 ta loyiha ishga tushirilib ko'zda tutilgan. Bularning natijasida turarjoylar, savdo va ko'ngilochar majmualar qurilib, sanoat korxonalari tashkil etiladi va minglab ish o'rinlari ochiladi.

O'ZA.

DASTURLARNING IJROSI VA ISTIQBOLLARI O'RGANILDI

13-14-may kunlari Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi huzurida tuzilgan ishchi guruh tomonidan Qashqadaryo viloyatining turizm infratuzilmasini yaxshilash choralari hamda turizm dasturlarining bajarilish holati o'rganildi.

Senatorlar — hududlarda

Senatorlar va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi doimiy komissiyalari a'zolari o'rganish davomida ko'plab turizm obyektlariga tashrif buyurib, viloyatning bu boradagi salohiyati, joylardagi infratuzilmalar holati, yangi turizm rekreatsionlari va zonalari faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Xususan, Qashqadaryo viloyatiga o'tgan yilda 2,1 mln. mahalliy va 570 ming xorijiy turistlar jalb qilinib, xizmatlar eksporti 115 mln.

AQSH dollariga yetkazilgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi choragida 202 ming mahalliy va 62,4 ming xorijiy turistlar tashrif buyurgan hamda turizm eksporti 12,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda viloyatning turizm salohiyatini xorijiy davlatlarda targ'ibot qilish uchun mahalliy turoperatorlar bilan hamkorlikda 70 ga yaqin

turpakettlar o'zbek, ingliz va rus tillarida ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z ichiga ziyorat, ekoturizm, etnoturizm, gastroturizm va ekstremal turizm yo'nalishlarini qamrab olgan. Bundan tashqari, viloyatda joylashtirish vositalari, ya'ni mehmonxona, xostel, uy mehmonxonalari 2017-yilda 34 ta bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 365 tani tashkil etdi. Yangi 13 ta turoperator faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida bu ko'rsatkich 48 taga yetkazilgan.

Ishchi guruh a'zolari tomonidan hududlarda xorijlik sayyohlar, turizm direksiyalari, turoperatorlar va joylashtirish vositalari vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar o'tkazilib, hudud miqyosida ularni qiyayotgan muammolar hamda yechimini kutayotgan masalalarga aniqliklar kiritildi.



MAHALLIY ISHBILARMONLAR UCHUN MUHIM PLATFORMA

Poytaxtimizda “TextileExpo Uzbekistan — 2025 Bahor” 24-xalqaro ko'rgazmasi o'childi. “ItECA Exhibitions” kompaniyasi hamda “ICA Eurasia Group” xalqaro ko'rgazma uyushmasi va qator mahalliy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan bu ko'rgazma yirik sanoat korxonalari hamda kichik biznes vakillari uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Xalqaro ko'rgazma

Bu yilgi ko'rgazmada 165 dan ortiq kompaniya va brendlar, shu jumladan, O'zbekiston, Belarus, Qozog'iston, Xitoy, Pokiston, Tojikiston va Turkiyadan vakillar qatnashmoqda. Ekspoziitsiyalarda turli toifadagi to'qimachilik mahsulotlari — kalava ip, trikotaj va ipak matolar, poyabzal va aksessuarlar, qayta ishlangan materiallar, bo'yoq va kimyoviy

sanoat palatasi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Made in Uzbekistan” maxsus stendi orqali milliy mahsulotlar namoyishi ham ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Unda tayyor kiyim-kechaklar, uy tekstili, ish kiyimlari va turli aksessuarlar o'rin olgan. Xalqaro miqyosdagi bu tadbir mahalliy ishbilarmonlarning



moddalar, qadoqlash mahsulotlari namoyish etilmogda. Joriy yildan boshlab yangi yo'nalishlar, xususan, paxta va tola mahsulotlari, tayyor kiyim-kechak, ichki kiyimlar, qayta ishlangan matolar ham ko'rgazmaga qo'yildi.

O'zbekiston Savdo-

xalqaro bozordagi ishtirokini ta'minlashda, mahsulot turlarini diversifikatsiyalashtirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazma 16-mayga qadar davom etadi.

“Xalq so'zi”.

SOG'LOM TURMUSH TARZI VA SPORTNI OMMALASHTIRISH BO'YICHA QANDAY ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan navbatdagi “Hukumat soati” bo'lib o'tdi.

“Hukumat soati”

Unda deputatlar “Mamlakatimizda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish borasida amalga

oshirilayotgan ishlar to'g'risida”gi masalani muhokama qildi.

Kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan deputatlarning savollariga

Sport vaziri A. Ikromov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'ngi yillarda byudjetdan sportga ajratilayotgan mablag'lar sezilarli ravishda ko'paydi.



“YASHIL” IQTISODIYOT BARQAROR TARAQQIYOTGA ERISHISH ASOSI

“Yashil” iqtisodiyot, bu — iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohasini rivojlantirishga qaratilgan. Sodda aytganda, mavjud resurslardan samarali foydalanish, energiya manbalarini yangilash, chiqindini kamaytirish va tabiiy resurslarni saqlab qolish asosiga qurilgan iqtisodiy model hisoblanadi.

Mushohada

“Yashil” iqtisodiyotning eng afzal jihatlaridan biri — ishlab chiqarishda “yashil” energiya texnologiyalarining keng joriy etilishi orqali atrof-muhitga nisbatan salbiy ta'sirlarning keskin kamayishi bo'lsa, ikkinchisi, bu kabi texnologiyalar yuqori darajada energiya tejamkorligiga erishish imkonini beradi. Soha mutaxassislarining fikricha, “yashil” iqtisodiyotning afzalliklarini hisobga olsak, uning barqaror rivojlanishiga erishishdagi o'rni shubhasizdir.

Chunki u atrof-muhit muhofazasini ta'minlaydi, ish o'rinlari yaratiladi hamda insonlarning turmush darajasini oshirish bilan birgalikda innovatsion taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, xususan, mamlakatda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiy o'sish bo'yicha strategik maqsadlar hamda chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda.



Mutolaa

O'ZBEKNING O'Z QIZI

Yaqinda O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan moliyalashtirilib nashr etilgan “Tanlangan asarlar” kitobini mutolaa qildim. Kitob salmoqli va salobatli, uni O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning “Jonfidollik” va O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Oq olmalar” singari shoirona yozilgan maqolalari bezab turibdi.

Kitobda shoiraning “Ilk muhabbat” (1968) kitobidan boshlab chiqqan barcha to'plamlaridan she'riy namunalar jamlangan. Ya'ni o'z vaqtida tilga tushgan “Oq olmalar”, “Chaman”, “Bobo quyosh”, “Sadoqat”, “Muqaddas ayol”, “Bu kunlarga yetganlar bor...” “To'marisning aytgani”, “Yo'ldadirman” va boshqa kitoblaridan she'rlar kiritilgan.

Shunisi e'tiborliki, singlimizning ko'p kitoblari bizning nashriyotda chop etilgan. Kamina G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida avval she'riyat bo'limi mudiri, keyinroq bosh muharrir bo'lib ishlaganman. Shoiraning barcha kitoblari kaminaning nazaridan o'tgan.



DASTURLARNING IJROSI VA ISTIQBOLLARI O'RGANILDI



O'rganish yakunlari bo'yicha Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda ishchi guruh tomonidan aniqlangan muammolar soha mutaxassislari va ekspertlari, vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida qizg'in muhokamadan o'tkazildi.

Aniqlangan muammo va kamchiliklar, xususan, turizm obyektlarida dam olish uchun qulay shart-sharoit yaratish, infratuzilmani takomillashtirish maqsadida yoritish tizimlarini o'rnatish hamda suv ta'minotini yaxshilash, shuningdek, sanitariya-gigiyena shoxobchalarini barpo etish va rekonstruksiya qilish yuzasidan zarur taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi hamda mas'ullarga taqdim etildi.

YURT RAVNAQI – MAHALLALAR TINCHLIGIDA

Yurtimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, aholining tinch va osoyishta hayotini kafolatlash, qonunbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida mahallalarda xavfsizlikni ta'minlashga oid mutlaqo yangi yondashuv va mexanizmlardan foydalanilmoqda.

Prezidentimizning "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda tashkil etilgan maxsus shtablar faoliyati parlament huzuridagi ishchi guruh tomonidan o'rganilmoqda.

Xususan, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va

korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent shahrining Sergeli, Yakkasaroy, Mirobod, Chilonzor va Yunusobod tumanlarida bo'lib, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

"Ijtimoiy profilaktika", "Namunali xavfsiz yo'lak" va "Namunali xavfsiz ko'cha" loyihalarini amalga

oshirish yuzasidan mas'ullarga aniq ko'rsatmalar berildi. Ayniqsa, "qizil" toifaga kiruvchi mahallalar bilan manzilli va tizimli ishlash, "yashil" toifadagi namunali mahallalar tajribasini ommalashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, mahallalarni to'liq videokuzatuv tizimi bilan qamrab olish, probatsiya hisobida turuvchi yoki muqaddam sudlangan shaxslarning ijtimoiy muammolarini o'z vaqtida hal etishga alohida e'tibor qaratildi.

Olib borilayotgan ishlar natijasida mahallalarda xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatlarni kamaytirish va fuqarolar hayotida barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar kuchaytirilmoqda.

"Xalq so'zi".

SOG'LOM TURMUSH TARZI VA SPORTNI OMMALASHTIRISH BO'YICHA QANDAY ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?



Bugungi kunda mahalladan boshlab yoshlarni ommaviy sportga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangicha tizim va yondashuv asosida birgina o'tgan yilda ommaviy sportdagi aholi qamrovi 10 millionga yetkazildi.

Joriy yil yakuni bilan jami 378 ta sport maydonchasi nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirilib, asosan, umumta'lim maktablari hududida barpo etilsa, 2030-yilgacha 5 mingga ana shunday sport maydonchasi quriladi.

"Hukumat soati"da deputatlarga ixcham va samarali boshqaruv tizimiga o'tish borasida ko'riyotgan chora-tadbirlar yuzasidan ham ma'lumotlar berildi.

A. Ikromovning qayd etishicha, bu borada tuman sport bo'limlari maqbullashtirilib, sport maktablari – tuman va shaharlarda ommaviy va professional sportni rivojlantirish hamda sport siyosatini yuritishga mas'ulligi belgilandi. Ularning faoliyati jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport bilan shug'ullanuvchilarni bosqichma-bosqich oshirib borishga yo'naltirilmoqda.

Hozirgi vaqtda 254 ta sport maktabida 460 ming nafar sportchi-o'quvchi 32 ming sport guruhida mashg'ulot olib boryapti. Ushbu muassasalarda esa 12,7 ming nafar trener faoliyat ko'rsatmoqda. Endilikda bu boradagi ishlarni kuchaytirish uchun mavjud shtat birliklari doirasida ommaviy sport bo'yicha trener-seleksioner lavozimi joriy etiladi.

Deputatlar sohada amalga oshirilayotgan ishlarni e'tirof qilib, mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va yoshlarning sport bilan shug'ullanish imkoniyatini kengaytirish borasida qanday ishlar olib borilayotgani bilan qiziqdi.

Vazir o'z javobida so'nggi to'rt yilda 101 ta yirik sport obyekti yangidan qurilib, 67 tasi rekonstruksiya qilingan, oxirgi uch yilda joylarda jami 1 369 ta, shundan 474 ta universal, 647 ta stritbol-vorkaut va 248 ta vorkaut sport maydonchalari barpo etilganini ma'lum qildi.

Sport maydonchalarining 671 tasi mahallada, 645 tasi maktablarda, 53 tasi sport-ta'lim muassasalarini hududida joylashgan bo'lsa, ularning 600 tasi eng o'lis va chekka qishloq hududlarida qurilgan.

Bundan tashqari, vazirlik tomonidan sport sohasini raqamlashtirish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik huzurida Raqamlashtirish va sertifikatlash markazi faoliyati yo'lga qo'yilib, so'nggi uch yilda 24 ta yo'nalishtdagi axborot tizimlarini o'zida birlashtirgan "ERP-Sport" yagona elektron platformasi ishga tushirilgan.

Sport ta'limi muassasalarida esa "FacilD" tizimi ishga tushirilib, sport guruhlarining sun'iy shakllantirish, o'quvchilarning mashg'ulotda ishtiroki haqqoniy emasligi holatlarining oldini olish va ularni tezkor aniqlash imkoniyati yaratildi. So'nggi bir yilda bu tizim orqali davomat ko'rsatkichi o'rtacha 9 foizdan 87 foizga yetdi.

"Hukumat soati"da Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari a'zolari elektorat manfaatlaridan kelib chiqib, vazir

oldiga bir qator savollarni qo'ydi. Xususan, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi To'ychi Yaqubov qon tartibidagi masalalarning dolzarbligini ta'kidlab, jismoniy tarbiya va sport sohasida xususiy sektorning ulushini yanada ko'tarish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish borasida vazirlik qanday ishlarni amalga oshirayotgani bilan qiziqdi. Bu bo'yicha yaqin va uzoq davrga mo'ljallangan strategiya ishlab chiqilganmi yoki ishlab chiqilyaptimi degan savolni o'rtaqa tashladi.

Vazir ushbu savol yuzasidan batafsil tushuntirish berib, mazkur yo'nalishtda teng imkoniyat, motivatsiya va rag'batlantirish kabi mexanizmlarni tashkil qilish orqali xususiy sektorni yanada rivojlantirish mumkinligini bildirdi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Ziyodbek Yunusov sportga yoshlarni yanada keng jalb qilish, ularning ushbu sohaga qiziqishini oshirish bo'yicha qanday yangi mexanizmlar borligi bilan qiziqdi.

Vazir o'z javobida hozirda 400 ta maktabda sport maydonchalari qurib berilgani va 10 dan ziyod sport turlari bilan shug'ullanish boshlanganini qayd etgan holda yoshlarning sportga qiziqishini yanada oshirishga faqat rag'batlantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

O'zXDP fraksiyasi a'zosi Dilbar Mamanjonova vazirlik tomonidan aholining o'rta yosh hamda yoshi katta qismi uchun amaliy sport tadbirlari qay tarzda tashkil etilayotgani, aholining quyi bo'g'ini o'tkazilayotgan sport tadbirlaridan qay darajada xabardorligini so'radi.

A. Ikromov deputatlarga vazirlikning ushbu yo'nalishtdagi rejalari haqida ma'lumot berib, aholini sportga keng jalb qilishda mahallalar bilan hamkorlikda ishlar olib borilayotgani, birgalikdagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligini qayd etdi.

O'zbekiston Ekologik iniyatsiyasi fraksiyasi a'zosi Noiba Inoyatova esa vazirlik tizimidagi hududiy boshqarma boshliqlarini, sport maktablari direktorlarini, joylarda boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi soha rahbarlarini lavozimga tayinlash va ozod etish tartibi qanchalik adolati va shaffofligi, kadrlarni joy-joyiga qo'yish va ularning malakasini oshirish bo'yicha qanday tizim shakllangani bilan qiziqdi.

Sport vaziri bu borada olib borilayotgan ishlar yuzasidan atroficha tushuntirish berib o'tdi.

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Saydullo Azimov esa vazirlik bugungi kunda korruptsiyaning oldini olish, korruptsiyaviy xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlarni belgilab olganligini so'radi.

Vazir korruptsiyaga qarshi kurashishning eng samarali yo'li raqamlashtirish ekanligini, oylik ish haqlarini oshirish va xodimlarni munosib rag'batlantirish orqali ushbu masalaga yechim topish mumkinligini qayd etdi.

"Hukumat soati"da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan qator takliflar berildi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

FUQAROLAR SALOMATLIGI MUHOFAZASIDA YANGI BOSQICH

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yaqinda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, birlamchi tibbiy xizmat sifati, ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyati, dori vositalarining samarali taqsimoti hamda tibbiy ta'limni takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Munosabat

Kengaytirilgan yig'ilishda ta'kidlanganidek, so'nggi yetti yilda sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 6 barobar oshib, 2025-yilning o'zida Davlat byudjetidagi sohaga 2024-yildagiga nisbatan 6,8 trln. so'm yoki 20 foiz ko'p mablag' yo'naltirilishi belgilangan. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun 2025-yilda 2,8 trln. so'm, ya'ni 2024-yildagidan 19 foiz ko'p mablag' ajratilgan.

Tibbiyotga yo'naltirilgan ushbu sarmoyalar tibbiy infratuzilmani yanqilash, yuqori texnologiyali xizmatlarni kengaytirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish uchun mustahkam asos bo'ldi.

Aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni erta aniqlash va davolashda birlamchi bo'g'in juda muhim. Shuning uchun bu yo'nalishtdagi islohotlar xalqimiz, ayniqsa, o'lis hududlardagi aholining talab va ehtiyojlarini chuqur o'rgangan holda bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda.

Shuning barobarida mahallalardagi birlamchi bo'g'in bilan ixtisoslashtirilgan xizmatlar o'rtasida bog'liqlikni ta'minlovchi yangi kompleks tizim joriy qilinadi. Ilgari faqat poxtaytda amalga oshirilgan 400 dan ziyod yuqori texnologiyali tibbiy amaliyotlar endilikda viloyat va tuman shifoxonalarida ham muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

Bugun tibbiyot sohasida talay muammo va kamchiliklar to'planib qolgan, bular aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgani ham sir emas. Xususan, aholi va bemorlarning oilaviy shifokorlarga emas, balki shifoxonalar va xususiy klinikalarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishi va buning natijasida tez yordam xizmatining ortiqcha yuklamalarga duchor bo'layotgani bunga misoldir. Qolaversa, ayrim hududlar poliklinikalarida malakali vrachlar yetishmasligi va borlarining ham yuklamalarni eplay olmayotgani ayni haqiqat.

Yurtimizda har o'n ming aholiga 29 nafar shifokor to'g'ri keladi. Bu AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va Kanada bilan bir xil, Turkiya va Kanadadagidan esa ko'p. Lekin bizda ish samaradorligi, davolash sifati yuqorida tilga olingan mamlakatlardagidek emas.

Masalan, mahallada birlamchi bo'g'in to'g'ri ishlamagani uchun tumanlarda kasallanish va ularning og'ir asoratlari kamaymayapti. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar mamlakatimiz iqtisodiyotiga har yili 1 mlrd. dollar atrofida zarar keltiryapti. Bunday omillar tizimni tubdan o'zgartirish, oilaviy shifokorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularga munosib mehnat sharoitlari yaratish bo'yicha keskin qarorlar qabul qilishga turki berdi.

Muhim yangiliklardan yana biri – oilaviy shifokorlar va aholi o'rtasida huquq va majburiyatlarni belgilaydigan ikki tomonlama shartnoma joriy etilishi hamda nogironlikni belgilovchi korruptsiya elementlaridan xoli yangi tizimning joriy qilinishi bo'ldi.

Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan chora-tadbirlarni amalga joriy etish uchun "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar" dasturi e'lon qilindi. Soha mutasaddilari va viloyat hokimlariga mazkur dastur asosida shifo maskanlarida kutish joylari hamda yo'laklarni tartibga keltirish, tozalik va madaniyatni oshirish topshirig'i berildi. Ta'lim va barcha ijtimoiy muassasalarda "Toza qo'llar" dasturi tatbiq etilib, sanitar-gigiyena sharoiti yaxshilanishi aytiladi.

Ishonchimiz komilki, ushbu dastur xalq salomatligini muhofaza qilishda yangi bosqichga o'tish uchun imkoniyat yaratadi.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining
Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari
qo'mitasi raisi.



Iqlim o'zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib, dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. O'z vaqtida bu borada chora-tadbir bo'lanmasa, oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida mutaxassislar tomonidan ogohlantirilyapti.

15-may – Xalqaro iqlim kuni

So'nggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza etish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga e'tibor yanada kuchaydi. Shu jumladan, iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish, oqibatlarini yumshatish va unga moslashishning yagona davlat siyosatini shakllantirish, shuningdek, Parij bitimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarini samarali amalga oshirish maqsadida Prezident huzurida iqlim kengashi tashkil etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tuzilmasida ham birinchi marta iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish masalalari bo'yicha komissiya tuzildi. Bu esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga parlament darajasida yechim topishda muhim rol o'ynaydi.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari tomonidan iqlim tahdidlariga qarshi kurashish maqsadida sa'y-harakatlarni birlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qator konstruktiv taklif va tashabbuslar ilgari surib kelinayotgani hamda ular hozirgi kunda amaliyotga samarali tatbiq etilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Binobarin, Prezidentimiz shu yil 7-aprel kuni Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida so'zlagan nutqida ham davrimizning o'tkir muammosiga aylangan, sayyoramiz taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotgan iqlim o'zgarishlari doimo diqqatimiz markazida bo'lishi kerakligini ta'kidlab, ushbu masalaga dunyo parlamenti vakillarining e'tiborini

qaratgani bejiz emas. Chunki iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadga muvofiqdir.

Qayd etish kerakki, mamlakatimizda so'nggi yillarda iqlim oqibatlarini yumshatish va unga moslashish borasida boy tajriba to'plandi. Jumladan, joriy yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Bu yilgi davlat dasturida nazarda tutilgan maqsad va vazifalar barcha sohada, jumladan, atrof-muhitni muhofaza etish yo'nalishtidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatli bo'ldi.

Dasturda nazarda tutilgan "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, aholining salomatligini yaxshilash, tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish masalalari O'zbekistonning iqlim oqibatlarini yumshatish va unga moslashish borasidagi o'ziga xos milliy tajribasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Davlat dasturi doirasida "Ekofaol fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Bir million yashil oila" umummilliy harakatini yo'lga qo'yish, ming kilometrlik kanallarni beton qoplamaga o'tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1,6 mln. gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2,5 mlrd. metr kub suvni tejashga erishish, 1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlarini, 77

ta ichimlik va oqova suv inshooti qurish hamda rekonstruksiya qilish ko'zda tutildi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi va "Mening bog'im" loyihasi doirasida 200 mln. tup daraxt hamda butalar ekish, "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'ini yaratish, Orol dengizi tubida 100 ming gektar yashil maydon barpo etish va Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 2,1 mln. gektarga yetkazish kabi qator vazifalarning amalga oshirilishi nafaqat O'zbekiston, balki mintaqaa mamlakatlari uchun ham ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Yana bir ahamiyatli jihati, Yurtboshimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida so'nggi to'rt yilda 850 mln.dan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Bu esa shaharlarimizga, mahallalarimizga yanada fayz bag'ishlashi bilan birga yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlashi va aholimiz salomatligini mustahkamlashi bilan ahamiyatlidir.

Iqlim oqibatlarini yumshatish va unga moslashish borasida "yashil" energetikani rivojlantirishning o'rni beqiyos. E'tirof etish joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilishga alohida e'tibor qaratilyapti. Birgina 2024-yilda "yashil" energetika bo'yicha qiymati 7,2 mlrd. dollarlik quvvati 4,4 GVT bo'lgan 24 ta loyiha, jumladan, 3,7 mlrd. dollarlik 18 ta yangi quvvatni ishga tushirish va navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berilganini alohida aytish lozim.

Global tusedagi ekologik muammolarni bartaraf etishda sa'y-harakatlarni birlashtirish iqlim o'zgarishlariga moslashish imkonini beradi va ayni chog'da mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga hamda xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xayrullo G'AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining
Ekologiya va atrof-muhitni
muhofaza qilish
masalalari qo'mitasi raisi.

AHOLINING DAM OLISHI UCHUN FOYDALANILADIGAN YERLARNI XUSUSIYLASHTIRISH TAQIQLANADI

Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, ekologik vaziyatni yaxshilash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish, daraxtzorlardan oqilona foydalanish, aholining dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda yer uchastkalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, daraxtlar va butalarning kesilishiga moratoriy e'lon qilinib, butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida keng ko'lami ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, yangi madaniy hordiq chiqarish maskanlari barpo etilyapti.

Yangi qonun

Ammo shunga qaramay yurtimizdagi sayilgohlar, xiyobonlar, istirohat bog'larini hududlarining va ularda ekilgan daraxtlarning muhofazasini kuchaytirish, bunday joylarda binolar hamda inshootlar qurilishining oldini olish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tahlikalarga ko'ra hozirgi kunga qadar respublika bo'yicha 184 ta istirohat bog'ida daraxtzorlar hududlari kamaytirilib, 944 ta bino-inshoot qurilgan, 18 ta istirohat bog'ida 91 noqonuniy qurilma mavjud ekani

hamda 98 ta istirohat bog'ida 1248 ta attraksion noqonuniy o'rnatilgani aniqlangan. Qolaversa, istirohat bog'larining yerlarini mahalliy hokimiyat xazarisiga olish va keyinchalik xususiylashtirish yoki begonalashtirish amaliyoti kuzatilgan.

Shu bois "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 2025 – 2029-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirishga qaratilgan ijtimoiy yo'nalishtdagi tashabbuslari aks ettirilib istirohat bog'larini, sayilgohlar va ularning hududlarini sotish, xususiylashtirish yoki

begonalashtirishni taqiqlash, bunday harakatlar uchun javobgarlik belgilash taklif qilingan.

2024 yil 18-noyabr kuni Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi tarixiy nutqida partiyalar saylov kampaniyasi davomida ilgari surgan va xalqimiz qo'llab-quvvatlagan har bir taklif, albatta, ko'rib chiqilishi va amalga oshirilishi ta'kidlangan edi. Ushbu yig'ilishda "Adolat" SDPning istirohat bog'larini, sayilgoh, xiyobonlarni xususiylashtirishni taqiqlash bo'yicha pozitsiyasi davlat rahbari tomonidan e'tirof etilgandi.

Ta'kidlash joizki, Germaniya, Ispaniya, Avstraliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada va boshqa davlatlarning xorijiy tajribasini o'rganish natijasida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida sayilgoh, xiyobon, bog'lar hududi va ularda ekilgan daraxtlar muhofazasini kuchaytirish,

bu maydonlarda bino va inshootlar qurilishining oldini olish maqsadida qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis palatalari tomonidan qabul qilingandi.

Yaqinda ushbu hujjat – "Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun Prezidentimiz tomonidan imzolandi.

Mazkur qonun bilan davlat mulki bo'lgan hamda aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olish uchun foydalaniladigan yerlarni yoki ularning bir qismini xususiylashtirish yoxud boshqacha tarzda begonalashtirish taqiqlandi. Ushbu yerlarda binolar va inshootlar qurish yoki mavjud binolar va inshootlarning qurilish maydonlarini kengaytirish, ushbu yerlarning hududini qisqartirishni taqiqlash belgilandi.

Jinoyat kodeksiga kiritilgan

qo'shimchaga ko'ra mazkur cheklavlarga rioya etmagan holda yer berish tartibini buzganlik uchun jinoyi javobgarlik kuchaytirildi.

Shuningdek, yer uchastkalaridan ruxsat berilgan foydalanish turlari joriy etilib, ularning asosiy, shartli ruxsat va yordamchi turlarga bo'linishi ko'zda tutildi.

Bundan tashqari, botanika bog'larini muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ro'yxatiga kiritildi. Botanika bog'larini hududida ushbu bog'larni tashkil etish maqsadlariga muvofiq bo'lmagan va o'simlik dunyosining saqlanib qolishiga tahdid soluvchi har qanday faoliyat taqiqlanishi nazarda tutildi.

Mazkur qonun ekologiya va atrof-muhitni muhofaza etishga, havo ifloslanishining oldini olishga hamda dov-daraxtlarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Muhammadjon VALIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.



“YASHIL” IQTISODIYOT BARQAROR TARAQQIYOTGA ERISHISH ASOSI



Shu bois Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi asosida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, ushbu yoʻnalishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xalqaro tashkilotlar bilan oʻzaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan saʼy-harakatlarini taʼminlash bu borada alohida dastur ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Shunga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy oʻsishni taʼminlash boʻyicha olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmogʻida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida 2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga oʻtish va “yashil” oʻsishni taʼminlash dasturi qabul qilindi.

Unda qator strategik maqsadlarga erishish koʻzda tutilgan. Jumladan, “issiqxona gazlari”ning yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish, energiya samaradorligi koʻrsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining oʻttiz foizdan koʻprogʻiga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan taʼminlash rejalashtirilgan.

Vaziyatni oʻnglash uchun nima qilish kerak?

Energetika tizimi har bir mamlakatning strategik ahamiyatiga ega sohalardan biri boʻlib, uning barqaror rivojlanishi iqtisodiy oʻsishning muhim omillaridan hisoblanadi. Bugungi kunda jahonda elektr energiyasi isteʼmoli tejamkorligini oshirish, ekologik toza, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga katta

eʼtibor qaratilmoqda. Energiya isteʼmoli tobora ortib borayotgan sharoitda ekspertlar vaziyatni oʻnglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyillarini joriy etish zarurligini taʼkidlamogʻda. Mazkur yondashuv BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham oʻz ifodasini topgan.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu yoʻnalishni modernizatsiyalash, “yashil” texnologiyalarni joriy etish va isteʼmolchilar manfaatlarini himoya qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda soʻnggi sakkiz yilda elektr ishlab chiqarish 38 foiz oshib, 81,5 mlrd. kilovatt-soatga yetdi. Xususiy sektorga keng yoʻl ochilgani tufayli 11,2 gigavattli qoʻshimcha quvvat yaratildi. Natijada bu sektorning generatsiyadagi ulushi 24 foizga, “yashil” energiya hisssasi esa 16 foizga yetdi. Shu davrda aholi daromadi 16 baravar oʻsgani, yangi turdagi maishiy texnikalardan foydalanilayotgani sababli xonadonlarda elektr isteʼmoli 21 mlrd. kilovatt-soatdan oshdi. Bu 2016-yil koʻrsatkichdan 2 baravar koʻp.

2030-yilga borib, mamlakatimiz aholisi 41 millionga yetishi, iqtisodiyotimiz esa 1,5 karra oʻsishi kutilayapti. Shunga mutanosib ravishda, sanoatda 45 mlrd. dollarlik qoʻshilgan qiymat yaratish, xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, yirik maʼlumotlar markazlarini ishga tushirish koʻzda tutilgan. Buning uchun, avvalo, barqaror elektr taʼminoti zarur. Hisob-kitoblarga koʻra 2030-yilda 117 mlrd. kilovatt-soat, 2035-yilda esa 135 mlrd. kilovatt-soat elektr energiyasi talab etiladi. Yaʼni bu hozirgidan 1,7 baravar koʻpni tashkil etadi.

Muhim masalalardan yana biri – elektr energiyasining tannarxini pasaytirish boʻlib, buni hal etishning samarali yoʻli muqobil manbalarni koʻpaytirishdir. Xorijiy ekspertlar ham Oʻzbekiston sharoitida “yashil” energiya imkoniyatlari koʻpligini taʼkidlamogʻda. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda 2030-yilga borib jami generatsiyada “yashil” energiya ulushini 50 foizdan oshirish koʻzda tutilgan. Jumladan, 3 mingta mikroGESda 164 megavatt, quyosh va shamol qurilmalari hisobiga 750

megavatt quvvatlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Taʼkidlash joizki, hozirgi kunda jahonning 160 dan ziyod mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan milliy strategiyalar qabul qilingan. Mazkur strategiyalarda 2030-yilga qadar umumiy energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya salmogʻini 50 foizga yetkazish belgilangan. Bugungi kunda u jahon boʻyicha yirik ish beruvchi sohaga aylangan boʻlib, tarmoqda 7,7

samarali boʻlgan “yashil” energiyaga oʻtish istiqbolli yoʻl hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasiga muvofiq yaqin oʻn yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmogʻida ekologik toza va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish koʻzda tutilgan. Belgilangan ustuvor yoʻnalishlarga mos ravishda soʻnggi yillarda mamlakatimizda “yashil” energetika

“Mamlakatimizda soʻnggi sakkiz yilda elektr ishlab chiqarish 38 foiz oshib, 81,5 mlrd. kilovatt-soatga yetdi. Xususiy sektorga keng yoʻl ochilgani tufayli 11,2 gigavattli qoʻshimcha quvvat yaratildi.”

mln. ishchi va mutaxassis faoliyat yuritmoqda.

Muqobil manbalarni koʻpaytirish – samarali yoʻl

“Yashil”, yaʼni qayta tiklanuvchi energiya manbalari global iqlim oʻzgarishi va ekologik muammolarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyosh, shamol, suv, shuningdek, geotermal va biomassa kabi qayta tiklanuvchi manbalar orqali hosil qilinadigan bunday energiya turlari tabiiy jarayonlar bilan bogʻliqdir. Umuman, “yashil” energiyaning afzalliklari ifloslantiruvchi chiqindini kamaytirish, tabiiy resurslarni tejash va barqaror rivojlanishga hissa qoʻshish kabi omillarda namoyon boʻladi.

Tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, Oʻzbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, koʻmiridan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yoʻqotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarining salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablagʻ talab qiladi. Shu bois jahon mamlakatlari tajribasiga asosan ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan

tizimini rivojlantirish boʻyicha katta quvvatlar ishga tushirilib, ishlab chiqarish salohiyati oshirildi.

Jumladan, umumiy quvvati 2 787,9 megavatt boʻlgan yangi elektr stansiyalari foydalanishga topshirildi. Ularning tarkibida quyosh fotoelektr stansiyalari (1 000 megavatt), shamol elektr stansiyalari (800 megavatt), issiqlik elektr stansiyalari (965,2 megavatt) va gidroelektr stansiyalar (22,7 megavatt) mavjud.

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga oʻtish gʻoyasining ilgari surilgani energiya resurslari isteʼmolini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga, iqlim oʻzgarishlari oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, tabiiy ekotizimlarni asrashga, iqlim oʻzgarishi sharoitida samarali, resurstejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni taʼminlashga qulay muhit yaratmoqda. Oxirgi uch yilda joylarda 3,5 gigavattli 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi, 35 ta kichik GES qurildi. Sanoatda “yashil energiya” sertifikat tizimi joriy qilindi. Quyosh panellari oʻrnatgan xonadonlar 60 mingdan oshdi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxtlar ekilib, bogʻlar yaratilaypti.

Oʻzbekistonning salohiyati ancha yuqori

Mamlakatda aholi soni va daromadlarining koʻpayish tendensiyasi sharoitida, tabiiy ravishda, energetika resurslariga boʻlgan talab ham ortadi. Shu jihatdan, “yashil” iqtisodiyotning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan Oʻzbekistonning salohiyati ancha yuqoridir.

Xalqaro moliya institutlarining hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik xazirasi 270 mln. tonna shartli yoqilgʻi ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra koʻpni tashkil etadi. Bu kabi sharoitda “yashil” energetika sohasidagi loyihalarni keng koʻlamda amalga oshirish Oʻzbekistonda yaqin oʻn yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga koʻpaytirishga va natijada iqtisodiy barqarorlikni yanada oshirishga imkon yaratadi.

Umuman, “yashil” iqtisodiyot bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan jarayonlar hisoblanadi. Oʻzbekistonda ham “yashil” texnologiyalarga oʻtishni jadallashtirish va resurstejamkor texnologiyalarni keng joriy etish orqali “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar mamlakatning energetik mustaqilligi va ekologik barqarorligini taʼminlash hamda zamonaviy energetika infratuzilmasini shakllantirish va shu asosda iqtisodiy oʻsishni barqarorlashtirishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yoʻlidagi bunday ijobiy tendensiyalar mamlakatimizda “yashil” texnologiyalarga asoslangan innovatsion taraqqiyotni taʼminlash orqali iqtisodiy oʻsish surʼatlarini barqarorlashtirish, pirovardida aholi turmush farovonligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Shahnoza QORRIYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universitetining
Mehnat iqtisodiyoti kafedrasida
katta oʻqituvchisi.**

FAROVON HAYOT KALITI

Andijon viloyatida 2017-yilda aholining suv bilan taʼminlanganlik darajasi 78,1 foizdan iborat edi. Soʻnggi yillarda hududlar infratuzilmasini shakllantirish orqali aholi turmush sharoitini yaxshilashga boʻlgan eʼtibor ortdi. Natijada oʻtgan yili viloyatda 104 mlrd. soʻm mablagʻ hisobiga 209 km. ichimlik suvi tarmogʻi, 12 dona suv inshooti, 36 ta suv qudugʻini qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi. Natijada 33 ming nafar aholi ilk bor ichimlik suvi bilan taʼminlanib, 64 ming aholiga xizmat koʻrsatish sifati yaxshilandi.

Obodlik

– Mahallamiz Andijonning eng olis hududi hisoblanadi, – deydi Qoʻrgʻontepa tumanidagi “Qizil toʻqay” MFY faoli Faridaxon Oʻrinboeva. – Yarim asr mobaynida bir qancha muammolar yigʻilib qolgani. Jumladan, ichimlik suvi taʼminoti izdan chiqqanligi bois ariqdan suv tashib kelishga toʻgʻri kelgan. 2023-yili mahallamizda bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ishonasizmi, atigi 1,5 oyda hududimiz



tubdan oʻzgarib ketdi. 11 km. masofaga suv quvuri tortilib, 2 ta suv qudugʻi ishga tushirildi. Har bir xonadonga suv joʻmraklari olib kiritildi. Tasavvur qiling, yozning jazirama, qishning qahratonida uzoqdan suv tashib kelish qayoqda-yu, oʻzing yashab turgan xonadonning ichidagi joʻmrakdan suv ichish qayoqda!

Orda qolayotgan yillar davomida Andijon viloyati katta bunyodkorlik maydoniga aylandi. Natijada keyingi 8 yilda 5638 km. suv tarmogʻi, 1155 ta suv qudugʻi, 70 dona suv inshooti qurildi. 738 ta MFYda 996 ming nafar aholining ichimlik suvi taʼminoti yaxshilandi. 828 ming nafar aholi ilk bor ichimlik suvi bilan taʼminlandi. Hududning suv bilan taʼminlanganlik darajasi 91,9 foizga yetdi. Bu poxtat Toshkent shahridan keyin ikkinchi oʻrinligini hisobga olsak, amalga oshirilgan ishlar koʻlami yanada yaqqolroq namoyon boʻladi.

– Shu kunlarda suv hisoblash uskunalarini oʻrnatishga eʼtibor qaratilgan, – deydi “Andijon suv taʼminoti” AJ xodimi Abduvohid Hotamov. – Buning bir qancha afzalliklari bor. Birinchidan, isrofgarchilikning oldi olinsa, ikkinchidan, taʼminot hajmi ortadi. Uchinchidan, isteʼmolchi toʻlovdan iqtisod qiladi. Bu borada dastlab Paxtaobod tumanida sinov ishlarni amalga oshirdik. Shunda maʼlum boʻldiki, toʻrt kishidan iborat bitta oila anʼanaviy usulda 1 oyda 61488 soʻm miqdorida toʻlovni amalga oshirib kelgan boʻlsa, suv hisoblagich oʻrnatilganidan soʻng bu koʻrsatkich

13440 soʻmni tashkil etdi. Yaʼni 48048 soʻm mablagʻ iqtisod qilinmoqda.

Hozirda viloyatda 536 ming isteʼmolchi mavjud boʻlib, ularning 271 mingtasi suv hisoblash uskunasi bilan taʼminlangan. Joriy yil yakuniga qadar 73 mingta suv hisoblash uskunasi oʻrnatilishi kerak boʻlgani holda ayni paytgacha 13,1 mingta moslama oʻrnatildi.

– Shu mahallada tugʻilib oʻsganman, yoshim 73 da, – deydi Oltinkoʻl tumanidagi Qoʻshkoʻprik mahallasida yashovchi Ahmadali

OʻZBEKISTON – ENG JOZIBALI SAYYOHLIK YOʻNALISHLARIDAN BIRI



“Fun walk” formatida boʻlib oʻtgan targʻibot tadbirida Oʻzbekiston quruq mevalari taqdimoti ham oʻtkazildi. Maxsus tashkil etilgan pavilyonda yurtimizdan keltirilgan bargak, mayiz, bodom, yongʻoq va boshqa turdagi neʼmatlar ishtirokchilarga ulashildi.

Anjumanda hozir boʻlgan indoneziyalik mehmonlar doʻstlik marshida ishtirok etdi.



**Danang Girin DRAVARDANA,
Indoneziya toʻqimachilik
uyushmasi ijrochi
direktori:**

– “Fun walk” tadbiriga oila aʼzolari bilan keldik. Anjuman davlatlarimiz oʻrtasidagi doʻstlik va yaqin munosabatlar ramzi sifatida ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Oʻzbekiston haqida koʻp eshitganman, lekin bugun tashkil etilgan taqdimot orqali Markaziy Osiyodagi bu muqaddas zaminning qanchalik boy tarix va madaniyatga ega ekanini yana bir bor angladim. Oʻzbekiston indoneziyaliklar orasida eng jozibali turizm yoʻnalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, ushbu zaminida voyaga yetgan ulugʻ donishmandlar, mutafakkir va ulamolar islom dini taraqqiyotiga va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qoʻshgan. Men Imom Buxoriy yurtiga, albatta, safar qilaman.

**Aditya Adha SHAHPUTRA,
sayohatchi-blogger:**

– Indoneziyalik sayyohlar uchun Oʻzbekiston juda qiziqarli yoʻnalish. Bu yurt dunyo sivilizatsiyasi oʻchoqlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Indoneziyadan har yili minglab turistlar ziyorat maqsadida ushbu diyorga yoʻl olmoqda. Turizm yoʻnalishida Oʻzbekistonning afzalliklari talaygina.

Yurtimizning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro va Xiva hamda tarixiy obidalari haqida yanada koʻproq maʼlumot olishni istayman. Movarounnahr ulamolari Indoneziya orollarida islom dinini tarqatishda alohida oʻrin tutgan. Shu bois qoʻshma ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borish nihoyatda muhim deb oʻylayman.



**“Dunyo” AA.
Jakarta**

TOKIODA OʻZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VAKILLIK OFISI OCHILDI

Oʻzbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi delegatsiyasining Yaponiyaga tashrifi doirasida bir qator IT kompaniyalar bilan hamkorlik kelishuvlariga erishildi.

Hamkorlik

Jumladan, tashrif davomida Tokio markazida IT Park Oʻzbekistonning vakillik ofisi ochildi.

Vazirlik xabariga koʻra Oʻzbekiston – Yaponiya oʻrtasida IT sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash va yanada kengaytirish maqsadida tashkil etilgan ushbu ofis ochilishiga bagʻishlangan tadbirda aytilildi,

vakillik ofisini ochishdan asosiy maqsad – Yaponiya kompaniyalari bilan IT outsourcing, investitsiya va taʼlim sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, IT Parkning imkoniyatlari haqida toʻgʻridan-toʻgʻri maʼlumot berish hamda Yaponiya bozoridagi biznes hamkorlar uchun ishonchli aloqa nuqtasini yaratishdan iborat.

Tadbir doirasida IT Parkning Yaponiya bozoridagi rejaları, IT xizmatlari, soliq imtiyozlari va

kadrlar tayyorlash dasturlari haqida taqdimot oʻtkazildi.

Shuningdek, IT Park hamda “Digital Knowledge” kompaniyasi oʻrtasida vakillik ofisining faoliyatini birgalikda yoʻlga qoʻyish, Yaponiya kompaniyalari bilan bogʻlanish va ularni Oʻzbekistonning IT bozoriga jalb qilish borasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Mutaxassislar fikricha, IT Parkning Tokio shahridagi vakillik ofisi Yaponiya kompaniyalari uchun ishonchli aloqa nuqtasi, rezident kompaniyalar uchun esa yangi hamkorlik eshigi vazifasini bajaradi.

“Xalq soʻzi”.

Karimjon Ashurov asl dehqon. Quvada bu oilani yer ilmi mirishkori sifatida bilishadi. Karimjon aka uzoq yillar boʻsh yotgan qir-adirlarda intensiv bogʻ barpo etishga kirishganida koʻpchilik buning istiqboliga ishonmagandi. Ammo u ortga chekinmay, astoydil mehnat qilish orqali ezgu tashabbusini amalga oshirdi. Bugun Turkiya tajribasi asosida bunyod etilgan 90 gektarlik intensiv oʻrik bogʻi toʻliq mevaga kirgan. Zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsiya gʻoyalari asosida yetishtirilayotgan oʻrik mevalari xorijda ham xaridorgir.

Imkoniyat

Keyingi yillarda Fargʻona bogʻlarida sharbarga toʻlib pishadigan Rishtonning qantak oʻrigi, Quva anori, Oltiariq uzumi, Qoʻqon va Quvasoyning qashqar giloslari eksporti salmogʻi tobora oshib bormoqda. Ayni paytda viloyatda 49 ming gektardan ortiq bogʻlar mavjud. Joriy yilda 5 ming gektar kam hosilli bogʻlar oʻrinda intensiv bogʻlar tashkil etish maqsad qilingan. Bu borada fermer va dehqon xoʻjaliklari, ixtisoslashtirilgan ilmiy markazlar olimlarining faol hamkorligi samarasi ham yildan-yilga yaxshilanmoqda.

– Hozirgi kunda mahalliy hamda xorijdan keltirilgan oʻrikning 9 ta, shaftolining 13 ta, uzumning 5 ta navi boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda, – deydi Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bogʻdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining

Fargʻona ilmiy tajriba stansiyasi direktor oʻrinbosari Adhamjon Mahmudov. – Bundan koʻzlangan maqsad – viloyatimizdagi bogʻlarda turli navlarning ekologik sinovini oʻtkazish orqali serhosil, mevasi yuqori sifat koʻrsatkichlariga ega, eksportbop, kasalliklarga chidamli yangi navlarni yaratish hamda ularni parvarishlashning agrotexnolog asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur ilmiy markazda soʻnggi yillarda oʻrikning “Boborajabi”, “Chimyon Ergashqantak”, shaftolining “Muyassar”, behining “Mushkbehi”, “Olmabehi” navlari yaratilib, ushbu navlar davlat reestriga kiritildi. Hozirgi kunda olma, behi va shaftoli navlari hosili meva eksportida salmoqli oʻringa ega. Markaz olimlari tomonidan unumdorligi past toshbagʻalli yerlarda olma, uzumning serhosil navlarini koʻpaytirish hamda yaxshi daromad olish boʻyicha olib borilayotgan saʼy-harakatlar ham



eʼtiborga molik. Nazariy bilimlar va amaliyot uygʻunligini taʼminlash maqsadida joriy yilda ekish uchun stansiyada sifat sertifikatiga ega 45 ming tup uzum, 4 ming tup olma, 3 ming tup oʻrik, 2 ming tup shaftoli koʻchatlari yetishtirildi.

Rishton tumanidagi 2,5 ming gektar oʻrikzorning 1,1 ming gektari qantak oʻrik bogʻlaridir. Bugungi kunda tumanida 20 ga yaqin eksportyor korxonalar faoliyat koʻrsatadi. Ular tomonidan MDH, Osiyo, Yevropa davlatlariga mahalliy bogʻlar mahsuloti eksport qilinmoqda. Oltiariqda uzum eksporti salohiyatini yanada oshirish maqsadida jahon bozorining eng

xaridorgir uzum navlari olib kelinib, mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirilmoqda.

Oʻtgan yili Fargʻona viloyatida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish maqsadida umumiy qiymati 2,1 trn. soʻmlik 462 ta loyiha amalga oshirildi. Shuningdek, 60,3 mln. dollar miqdorida xalqaro moliya institutlari kreditlari hamda xorijiy investitsiya mablagʻlari oʻzlashtirildi. Tarmoqda 11 200 ta ish oʻrni yaratildi.

– Fargʻona tumanining “Doʻstlik” MFY hududida turkiyalik investorlar tomonidan 70 gektar togʻoldi qir-adirliklarda yangi sanoatlashgan intensiv bogʻlar barpo qilingan boʻlsa, joriy yilda yana qoʻshimcha 200 gektar maydonda bogʻlar tashkil etish maqsad qilingan, – deydi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Fargʻona viloyati boʻlimi boshligʻi Shermuhammad Noʻmonjonov. – “Fergana Agro Cluster and Logistics” MCHJ QK tomonidan

amalga oshirilayotgan loyiha qiymati 2,5 mln. dollar boʻlib, zamonaviy intensiv bogʻda oʻrik, gilos, shaftoli va okoʻri kabi eksportbop mevalar yetishtiriladi.

Viloyatning Soʻx tumani tabiati ham ortiqcha taʼrifga muhtoj emas. Purviora togʻlar etagidagi koʻhna bogʻlar, xususan, Mirzo Boburidan meros mevazorlar tuman ahli azaldan bogʻdorchilik hadisini olganidan dalolat beradi. Keyingi yillarda Soʻx tumanining “Javpaya” massivida joylashgan togʻoldi qir adirliklarda 210 gektar yerda intensiv oʻrik bogʻi tashkil etilib, 0,5 gektardan ishsiz oialarga boʻlib berildi. Mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan adirlikka suv chiqarilib, uni tejovchi texnologiyalar oʻrnatildi. Bugungi kunda mazkur bogʻlar mevaga kirib, bogʻbonlar mehnati rohatini koʻrmogʻda. Ayni paytda Quva, Oltiariq, Qoʻshstepa tumanlari, qoʻyingki, viloyatning barcha shahar-tumanlarida intensiv bogʻlar barpo etilib, shirin-shakar mevalarimiz oʻnlab davlatlarga eksport qilinmoqda.

**Botir MADIYOROV
 (“Xalq soʻzi”).**

O‘ZBEKNING O‘Z QIZI

1 Chunonchi, 1983-yilda ijodkorning “Sadoqat” kitobini nashrga tayyorlash bobidagi harakatlarimiz hozirgidek esimda.

Halima o‘z kitoblarining muqova va bezaklariga katta e’tibor beradi. “Sadoqat” kitobi muqovasining xomaki nusxasini o‘zi olib keldi va imyanibgina kitob bo‘limlaridagi zarvaraqalarga she’rlardan o‘z dastxati bilan yozilgan to‘rt qator, sakkiz qator joylashtirishni taklif etdi. Bu chiroyli taklif edi. Bezaklar o‘quvchi diqqatini tortish bilan birga kitobni boyitar ham edi. “Sadoqat” ana shunday nashr qilindi. Shoiraning barcha kitobi shu yo‘sinda bosib chiqarilgan, desak, mubolag‘a bo‘lmas.

Yuqorida aytganimday, Halimaning ko‘p kitoblarini o‘qigan bo‘lsam ham, qiziq hodisa yuz berdiki, men xuddi shoiramizning she’rlarini yangidan o‘qiganday bo‘ldim. Buning sababi, albatta, shoiraning kuchli salohiyatida, she’riyatining ohori ekanida.

Halima she’riyatida fikr, qanday bo‘lsa ham, shoirona fikrni ifoda qila olish va uni o‘quvchiga yetkazish vazifasi birinchi o‘rinda turadi. Keyin unga xos xususiyat, bu – jo‘shqinlik. Hayot shovqinlarida nafas olish, shuni his etish, hayot saslarini o‘z she’rlariga olib kirishga tirishadi va erishadi. Shoiraning she’rlari bamisli toshqin soyga o‘xshagan, to‘lib-to‘lib oqadi, hatto jo‘shqinligi bois qirg‘oqdan toshib ham ketadi.

Boyovut, Mirzacho‘l cho‘llarida tug‘ilib voyaga yetgan, cho‘l quyoshida qorayib-chiniqqan, qir shamollari sochlarini silagan... Halimaning she’rlarida cho‘l quyoshi ham, qir shamollari ham, cho‘l manzarasi ham – bari-bari o‘z aksini topgan:

Qalbga eking.
Qadim turk chinorlari tiklansin,
Qon-qardoshning chin do‘stu
chin yorlari tiklansin.
Har yurakda bir Turon
minorlari tiklansin.

Fikr zo‘r! Uni qo‘llab-quvvatlash uchun shoir shu she‘r oxirini shiorga aylantirib yuboradi:

Ulug‘ mamlakatni ko‘taring!

Shoiraning lirik qahramoni yolg‘iz emas. Uning yonida hamisha sadoqatli do‘sti bor – o‘quvchi! U o‘quvchi bilan sirlashadi, ko‘nglini ochadi, dardlarini aytadi, dil yaralariga malham topadi. Shu sababdan shoiraning ko‘p she‘rlari, o‘sha do‘stga murojaat, xitob, iltijo bilan boshlanadi. Bu – o‘quvchi bilan sirlashishning qulay yo‘li.

Ijodkor sokin she‘rlar yozishni unchalik yoqtirmaydi, bo‘yab-bejamaydi, soddalikni yaxshi ko‘radi. Uning she‘rlaridan hayot shovqinlari eshitilib turadi. Xalq ohanglariga yaqin bo‘lganidan she‘rlari darrov sevimli qo‘shiqlarga aylanib ketadi. U qo‘shiqlar g‘oyat dilga yaqin, yoqimli. Uning ijodida she‘rlar xuddi hayotning parchalariday, bir-birini to‘ldirib keladi.

Halimaning “Shunchaki...” deb nomlangan dasturiy xarakterga ega she‘ri bor. Unda ijodkorgina emas, balki umuman Inson uchun insoniylik me‘yorlari belgilab berilgan. Juda ajoyib she‘r. She‘riy satriarga e’tibor bering:

...Shunchaki sevimloq – baxti qoralik,
To‘la tole uchun bu kemtik, bu kam.

Mening qalbim shunday
sevgiga molik,
Bir chirsillab yonay, so‘ngra
so‘nsam ham.

...Shunchaki yig‘lash ham
yarashmas bizga,
Uni eplar faqat yuragi toshlar.
Shunday yig‘lay, hojat
qolmasin so‘zga,
Qurg‘oq ko‘zlardan ham
quyilsin yoshlar!

...Shunchaki yozmoq-chi,
ko‘ngil to‘lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa
bormaydi qo‘lim.
Shunchaki yozganga
chidab bo‘lmaydi,
Shunchaki yozmoq, bu –
shoirlarga o‘lim...

Bu she‘rda hayot falsafasi mujassam. Inson (shoir ham!) shunchaki yashashi kerak emas, unda chin sevgi-muhabbat bo‘lmog‘i kerak. Yig‘laganda shunday yig‘lasinki, uni ko‘rib, ko‘z yoshlari qurib bitgan ko‘zlardan ham yoshlar quyilsin! Ijodkorning shunchaki yozishga qo‘li bormasin, bunga aslo toqat qilib bo‘lmaydi, chunki shunchaki yozish, bu o‘lim bilan barobardir, degan xulosa chiqaradi shoir...

Halimaning ijodi haqida o‘ylaganimda, muhtarama shoiralarimiz Zulfiya, Saida Zunnunova, Oydin, Enaxonlar she‘riyati, ular bilan izma-iz, adabiyotimiz bog‘iga ko‘ruq chiroq bag‘ishlab kelishayotgan ijodkorlar Gulchehra, Sharifa, Farida, Munavvara, Zuhra Begim, Xurshida, Gavhar, Qutlibekalarning gurkurab ijod



qilayotganlari xayolimdan o‘tib, juda quvonaman. O‘zbek she‘riyati chamanining gul-chechaklari!

O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva ana shunday o‘tli shoiralar bilan hamnafasu bir jon bo‘ldi, ulardan o‘rgandi, ustozlarga izzat-ikromlar ko‘rsatdi, yoshlarning boshini siladi, ularga ustozlik qildi va qilib kelmoqda. Yaqinda Gulistondagi Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabini borib ko‘rdim, bag‘oyat mamnun bo‘ldim.

Halimaning shogirdlari ijodlari bilan tanishdim va ularda shoiraning jo‘shqin nafasini sezdim. Ha, adabiyotimizga yangi kuchlar quyilib kelmoqda. Bu – oqqan daryo, oqaveradi, oqishdan aslo to‘xtamaydi.

Shoira faxr bilan yozadi:

Vatan! Sen tutqazding
menga tuz va non,
Besabr jilg‘aday senga oqaman.
Toki quriguncha qo‘limda darmon,
Sening chirog‘ingni yoqaman!..

Ha, o‘zbekning o‘z qizi doim xalqning yuragidadir...

Muhammad ALI,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi.

ZIYOLILAR FORUMI

Tojikistonning Dushanbe shahrida MDHga a‘zo mamlakatlarning Ijodkor va ilmiy ziyolilari forumi o‘tkazilmoqda.

Madaniyat

Mazkur forumning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining o‘rinbosari Murodjon Majidov so‘zga chiqib, mazkur forum

MDHga a‘zo mamlakatlar o‘rtasida madaniyat va san‘at sohasidagi MDH Gumanitar hamkorlik davlatlararo fondi (GHDF) bilan aloqalar turli jabhalarda davom etib kelayotganini ta’kidladi. Muhimi, mazkur nufuzli anjuman ham o‘zaro tajriba almashish, yangi g‘oyalar tatbiqi maydoni bo‘lib xizmat qilayotir.

O‘zbekiston Madaniyat vazirligi axborot xizmati xabariga ko‘ra marosim yakunida GHDFning xalqaro mukofotlari o‘z egalariga topshirildi. Mamlakatimizdan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist R. Sagdullayev “Hamdo‘stlik yulduzlari” xalqaro mukofotiga sazovor bo‘ldi.



do‘st Tojikiston zaminida yuqori saviyada tashkillashtirilganini e’tirof qilarkan, O‘zbekiston hamda

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o‘qituvchilar lavozimlariga

TANLOV E‘LON QILADI

1. O‘qituvchi (rus tili va adabiyoti fani) — 1 o‘rin.
2. O‘qituvchi (huquq fani) — 1 o‘rin.

Toshkent “Temurbeklar maktabi”ning o‘qituvchi lavozimiga o‘tkaziladigan tanlovda oliy ma‘lumotli va kamida **5 yil uzluksiz pedagogik stajga** ega bo‘lgan shaxslar ishtirok etadi. Ilmiy unvon va ilmiy darajasi bor nomzodlarga ustuvorlik beriladi.

Tanlovda qatnashish uchun nomzodlar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. “Temurbeklar maktabi” direktori nomiga ariza;
2. Pasport nusxasi (hujjatlarni topshirish vaqtida pasportning asl nusxasi ko‘rsatiladi);
3. Oliy ma‘lumoti to‘g‘risidagi diplom;
4. Mehnat daftarchasining nusxasi;
5. Malaka oshirganlik bo‘yicha sertifikat;
6. 3,5 x 4,5 sm o‘lchamdagi 4 ta rangli fotosurat.

Tanlovda qatnashish uchun nomzodlardan hujjatlarni qabul qilish ishlari mazkur e‘lon berilgan sanadan boshlab 20 kun davom etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Yangizamon ko‘chasi, 10-“A” uy.

Murojaat uchun telefonlar: 71-291-48-26, 97-443-90-81.

Bugun – Xalqaro oila kuni

Oila – munis fazilatlar beshigi,jamiat gultoji. Bu go‘shaning biz uchun qadrli bo‘lgan yana bir jihati shundaki,unda millat davomchilari kamol topadi. Shuning uchun ham,ayniqsa,Sharq xalqlarida oila bo‘lib umr kechirish,bu maskanda totuvlikni, birdamlikni ta‘minlash,uni mustahkamlash qadriyat darajasiga ko‘tarilgan va bu borada yurtimizda qator islohotlar,chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

JAMIYAT GULTOJI VA MUNIS FAZILATLAR BESHIGI



Jumladan, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida har yili harbiy oilalar o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan “Ibratli harbiy oila” ko‘rik-tanlovi ham shunday ezgu amallar sirasidandir.

Vazirlkning Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentidan ma‘lum qilishlaricha, bu yil tanlovning yakuniy bosqichiga Sharqiy harbiy okrugi mezbonlik qildi.

“Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasiman” shiori ostida tashkillashtirilgan ushbu tanlovda harbiy okrug hamda qo‘mondonliklardan kelgan yettita oila qatnashdi. Ularning chiqishlari tegishli vazirlik va idoralar vakillaridan iborat nufuzli hakamlar hay‘ati tomonidan adolatli baholab borildi.

“Oilam – mening baxtim” deb nomlangan birinchi shart davomida deyarli barcha qatnashchi turli san‘at turlarini qo‘llagan holda har tomonlama sog‘lom, ibratli oila jihatlarini ko‘rsatib berdi. Bunda oila a‘zolari erishgan yutuqlar namoyishi ham e’tirofga sazovor, albatta.

Tanlov shartlaridan o‘rin olgan dars hamda “Kuch – birlikda” sharti haqiqiy ma‘nodagi sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi, kattayu kichikda sportga bo‘lgan qiziqishni oshirishi bilan e’tiborni tortdi. Yanada ahamiyatlisi, “Kuch – birlikda” sharti doirasida amalga oshirilgan musobaqalar otanalar hamda farzandlar o‘rtasidagi hamjihatlikni, mehr-oqibatni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ko‘pchilikka manzur bo‘ldi.

“She‘riyatga oshno ko‘ngildan yomonlik chiqmaydi”, deyishadi. Zotan, she‘r insonga nekkbin va samimiy tuyg‘ular bag‘ishlaydi. Yurak hamda aql birligini namoyon qilib, qalb g‘uborlarini aritadi. Ayniqsa, oilada ayollarning she‘riyatni sevishi, uni o‘ziga hamroh deb bilishi ularning millat tarbiyachisi sifatidagi ma‘naviy kuchini

oshiradi. Ularda eng sara sifatlarini shakllantirishga sabab bo‘ladi.

Ko‘rik-tanlovdagi “She‘riyat gulshani” sharti harbiy oila bekalaridagi ana shunday go‘zal sifat hamda fazilatlarini yuzaga chiqarish bilan birga, harbiylar ayollari har tomonlama ibratga, hurmat va ehtiromga sazovor ekanligining namoyishi bo‘ldi.

“Musiqiy kompozitsiya” sharti haqida ham shunday iliq fikrlarni aytish mumkin. Buning o‘ziga xosligi – oilalardagi iste’dod egalari kashf qilishi. Milliy laparlarni, zamonaviy qo‘shiqlarni maromiga yetkazib ijro etgan ishtirokchilarning mahorati tomoshabinlar tomonidan ham e’tirof qilindi.

Osh chempionati esa o‘zbek millatining mehmondostligi va milliy qadriyatimizni namoyish etgani bilan ahamiyatli bo‘ldi. Ochiq osmon ostida yetti viloyat vakillari tomonidan yetti qozonda damlangan milliy taomning har biri o‘ziga xosligi bilan ajralib, hakamlar hay‘atini ham hayratlarga oshno qilgani rost. Muhimi, bu shart orqali tanlovda ishtirok etayotgan harbiy oila a‘zolari pazandalik mahoratini ko‘rsata olishdi.

Murosasiz kechgan bellashuvlarda ota-onalari bilan tengma-teng faollik ko‘rsatgan bolajonlar ishtirokini ham alohida e’tirof etish joiz. Zero, zukko, sportsevar va bilimli bu o‘g‘il-qizlar timsolida biz yorug‘ kelajagimizni tasavvur qilamiz.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko‘ra 1-o‘rin kichik serjant Hasan Ikromov o‘lasini, 2-o‘rin kichik serjant Nodirbek Qurbonov o‘lasini, 3-o‘rin esa III darajali serjant Shardon Qo‘ysinov o‘lasiga nasib etdi. Shuningdek, turli nominatsiyalar bo‘yicha ham sovrindorlar aniqlanib, ular ham Mudofaa vazirligi hamda hamkor tashkilotlar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlantirildi.

“Xalq so‘zi”.

REKLAMA

TANLOV ASOSIDA O‘QISHGA QABUL

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi Respublika ixtisoslashtirilgan san‘at maktab-internati 2025/2026-o‘quv yiliga 2018-yilda tug‘ilgan iqtidorli o‘g‘il va qizlarni tasviriy san‘at va musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha 1-sinfga rus va o‘zbek tillarida o‘qish hamda 5-sinfga o‘zbek tilida o‘qish uchun tanlov asosida o‘qishga qabul qiladi.

Hujjatlar **2025-yil 2-iyundan 30-iyungacha** qadar quyidagi manzilda qabul qilinadi: 100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-daha, 1-“A” uy, RISMI.

Qabul imtihonlari 2025-yil 1-iyuldan boshlanadi.
Telefonlar: 71-274-92-21, 71-274-96-45.

O‘zbekistonda ilk bor sinxron suzish bo‘yicha “Suv parisi” 1-ochiq Markaziy Osiyo chempionati o‘tkazilmoqda.

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 21.00 Topshirildi — 02.05

1 2 3 4 5 6